

# **CHET TILLARINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI**

**Aminov I.B.**

Sh.Rashidov nomidagi SamDU,  
professor, [istam.aminov@mail.ru](mailto:istam.aminov@mail.ru)

**Qodirov R.N. SamISI**

“Ikkinchi va kechki bo’lim” tuyutori,  
[rafaelkodirov70@gmail.com](mailto:rafaelkodirov70@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada oily ta’lim talabalariga chet tilini o’rgatishda qo’llaniladigan zamonaviy ta’lim texnologiyalari tahlil qilinadi. Chet tilini o‘qitish jarayonida ta’lim texnologiyalaridan amaliy foydalanishning turli shakllari batafsil yoritilgan. Talabalar bilan ishlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari taqdim etilgan bo’lib, ular muloqotni rivojlantirishga, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashga, tinglash va o’z pozitsiyasini muhokama qilish qobiliyatiga yordam beradi.

**Kalit so’zlar:** ta’lim texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, multimedia texnologiyalari, multimedia kurslari, interaktiv texnologiyalar, masofaviy ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

**Аннотация.** В статье анализируются современные образовательные технологии при обучении иностранному языку студентов вуза. Подробно освещаются различные формы практического использования образовательных технологий в процессе обучения иностранному языку. Приведены возможности использования современных технологий в работе со студентами, что способствуют развитию общения, укреплению межличностных отношений, умению выслушивать и аргументировать свою позицию.

**Ключевые слова:** образовательные технологии, инновационные технологии, мультимедийные технологии, мультимедийные курсы, интерактивные технологии, дистанционные обучении, информационно-коммуникационные технологии.

**Annotation.** The article analyzes modern educational technologies in teaching a foreign language to university students. Various forms of practical use of educational technologies in the process of teaching a foreign language are covered in detail. The possibilities of using modern technologies in working with students are presented, which contribute to the development of communication, strengthening interpersonal relationships, the ability to listen and argue one’s position.

**Key words:** educational technologies, innovative technologies, multimedia technologies, multimedia courses, interactive technologies, distance learning, information and communication technologies.

Bugungi kunda hech bir sohani, shu jumladan ta’lim sohasini ham kompyuter va axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin, chunki ta’lim mazmuni va sifati jamiyatning dolzARB masalalari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoxda. Ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, ta’lim-tarbiya jarayonida yangi axborot texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashmoqda. Shu jumladan, ta’lim-tarbiya jarayonida fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi mexanizmlarini rivojlantirish, uni amaliyotga joriy etish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar hamda mustaqil bilim olish jarayonini individuallashtirish shu bilavn birga multimediali ta’lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish, o‘zlashtirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari hamda multimedia texnologiyalari asosida o‘quvchilarni o‘qitishni jadallashtirish ana shunday dolzARB vazifalar sirasiga kiradi.

Shuning uchun ham axborot texnologiyalarining taraqqiyotimizning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan ta’lim jarayonining jadal rivojlanib borishida o‘rni va samaradorligi beqiyosdir. Chunki axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ta’lim jarayonining sifati va samaradoligini oshirish jarayonida uning barcha imkoniyatlari va tashkillashtirish usullarini butunlay o‘zgartirib yubordi. Shu sababli bugungi kunda barchamiz o‘qitish tizimida «yangi pedagogik texnologiyalar» yoki «innovatsion texnologiyalar» atamasini ishlata boshladik. Hozir kunda ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari bilan jihozlanmoqda. Bu esa, o‘qituvchi-pedagoglarning o‘z mehnati faoliyatiga yangicha yondashuvini, dars berish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurligin talab etadi. O‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga ularning dars jarayonidagi o‘rni, vazifalari va rolini o‘zgartiradi. Shu bilan birga innovatsion texnologiyalar ta’lim tizimiga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining zamonaviy metodlarini, usullarini va dasturiy vositalarini tatbiq etish bo‘yicha yanada kengroq imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

O‘quv ta’lim muassasalarida chet tili fanini o‘qitish jarayonida juda katta miqdordagi axborotlarni to‘plash, o‘zlashtirish, qayta ishslash, o‘z o‘rnida qo‘llay olish va uzatish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun unda an’anaviy usullar bilan birga innovatsion texnologiyalardan, shu jumladan axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish zaruriyati paydo bo‘ladi. Axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib o‘qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir o‘quvchiga

individual yondashish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari vositalari orqali o‘qituvchi va o‘quvchilar chet tili faniga doir juda ko‘p miqdordagi axborotlarni olish va o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Chet tili fanini o‘qitish samaradorligini ta’minlash maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, darslarni yangi interfaol usul va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o‘tkazish, jumladan, multimedia, masofadan o‘qitish, Internet texnologiyalaridan foydalanish, kompyuterlashtirilgan anjumanlar o‘tkazish, multimediali elektron qo‘llanma va darsliklarni yaratish va ulardan darslarda bevosita foydalanish o‘z samarasini beradi.

Hozirgi vaqtida o‘quv jarayonining barcha jabhalarida, shu jumladan chet tili fanini o‘qitish jarayonida elektron o‘quv adabiyotlarini qo‘llash, ko‘plab axborot va kommunikatsion texnologiyalarining, shu jumladan dasturiy jihozlash vositalarining keng imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqli.

Dasturiy jihozlash vositalari – amaliy dasturiy jihozlar bo‘lib, ular o‘qitish jarayonining barcha sohalarida dasturiy tizimlarni yaratish, tayyorlash, tashkiliy materiallarni va ma’lumotlarni jamlash, grafik yoki animatsiyalarni qo‘sish va namoyish uchun mo‘ljallangan.

Chet tili fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanishda darsni tashkil etishning turli uslublari va texnologiya-laridan foydalanish kerak bo‘ladi. Buning uchun o‘quvchilarning o‘quv va kompyuter sinflarida, o‘qitishning texnik vositalari xonasida, uslubiy kabinetda, kutubxonalarda amaliy shug‘ullanishlarini tashkillashtirish lozim.

Multimedia axborotlarni har xil ko‘rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko‘rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi.

Chet tili fanlarni o‘qitish jarayonida multimedia texnologiyalarida an’anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko‘rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko‘rinishida ifodalanadi. Bu esa o‘quvchilarni mashg‘ulotlarda faolroq va diqqatliroq bo‘lishga o‘rgatadi, chunki axborotlar ma’lum bir harakatli amallarga mos javoblar asosida bayon qilinadi. Chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiropi va harakati orqali amalga oshiriladi.

Multimedia texnologiyalari nazariy, amaliy, ko‘rgazmali, ma’lumotli, trenajyorli va nazorat qismlarini birlashtirish yo‘li bilan o‘quvchilarga ijobiy va samarali ta’sir etuvchi vosita hisoblanadi.

Chet tili fanlarni o‘qitishda multimedia o‘quv kurslaridan foydalanish nazariy materiallarning ma’ruzaviy namoyishlarini sifatli video yozuvlari, virtual laboratoriya ishlari va amaliyotlarni, turli jara-yonlarning imitatcion animatsiyali modellarini yaratish imkonini beradi, bu esa ro‘y berayotgan jarayonlarni ta’sirchanligini va haqqoniyligini ko‘rsata oladi.

Ta’lim jarayonida chet tili fanlarni multimedia texnologiyalari asosida o‘qitishda quyidagilarga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi:

- ✓ multimedia vositalarida oddiyroq, tushunarliroq ohanglardan hamda
- ✓ milliy musiqalardan foydalanishga;
- ✓ tasvirlarning mohiyati jonli ovoz, tovush va nutq vositalarida oro‘ali aniq va ravon yoritilishiga;
- ✓ multimedia vositalarida barcha matn, tasvir, rasm, chizma va jadvallar imkon darajasida harakatli holatda ekranga uzatilishiga;
- ✓ ko‘rgazmalilik multimedia vositalarining asosini tashkil etishiga.

Chet tili fanini o‘qitishga mo‘ljallangan multimedia darsliklari amaliy tadbiqdan va tajribadan o‘tgan bo‘lishi bilan birga, o‘ziga xos xususiyatlarga, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun foydalaniladigan o‘quv materiallarining tasvirlanish formasiga va ko‘rinishiga bog‘liq bo‘ladi. Dars o‘tish jarayonida slaydlarda axborotlarni istalgan shaklda va ko‘rinishdagi matn, grafika, jadval va diagrammalar shaklida tashkil etish va namoyish qilish mumkin bo‘ladi.

Interfaol multimediali inlanmalar turli xil axborotlarni – matn, statik va dinamik grafika, video va audio yozuvlarni integratsiyalash imkonini beradi . O‘quvchini dars jarayonida faolroq va diqqatliroq bo‘lishga o‘rgatadi, chunki axborotlar ma’lum bir harakatli amallarga mos javoblar asosida bayon qilinadi.

Multimedia vositalaridan foydalanish chet tilini o‘rgatish bo‘yicha dasturlarni muvaffaqiyatli shakllanishiga yordam beradi, bu esa chet tili fanlarini o‘qitishni ma’lum bir miqdorda ko‘rgazmali qurollar bilan ta’minalash muammosini hal qiliadi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Александров, К.В. Информационно-коммуникационные технологии в обучении иностранным языкам: от новой формы к новому содержанию // Иностранные языки в школе.– 2011.– № 5. – С.15–20. 2.

2. Лебедева, М. В., Печищева М.В. Применение современных образовательных технологий в обучении иностранным языкам (на примере английского языка) // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Педагогика. 2016. – № 2. – С. 120–125.

3. Низовая, И.Ю. Новые сервисы и прикладные программы в практике преподавания иностранных языков // Иностранные языки в школе.2014.– № 10.– С. 36–41.

4. Лялина, Ю.Л. Использование интернет-ресурсов в обучении иностранным языкам / Ю.Л. Лялина // Иностранные языки в школе : журнал . — 2017 .— № 10 .— С. 28-31.